

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

THE FACTOR OF INCREASING PERSONAL RESPONSIBILITY IN IMPROVING MORAL AND MORALITY IN SOCIETY

Otokulov Abror Sobirkulovich

Senior Lecturer of the Institute of Information and Communication Technologies and Military Communications of the University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan,
Independent Researcher of the National University of Uzbekistan

Abstract. In this article, the concepts of spirituality, which are closely connected with the development of spiritual and moral quality in society, the social environment, the formation of individual responsibility, the renewal of our social life, the consciousness and psyche of a person, an important calculation for each member of society, the role of the virtue of responsibility in achieving the well-being of society, the role of in front of her husband, the responsibility of the two of them to their children, the parents of the children, from related qualities, such as behavior, are illuminated.

Keywords: spirituality, value, virtue, history, nationality, people, society, spiritual moral virtue, responsibility, vigilance, worldview, self-awareness, nationality, man, upbringing, morality, parent, family, progress, behavior, conscience.

JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI

Otokulov Abror Sobirkulovich

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining
Axborot — kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti katta o'qituvchisi,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyatda ma'naviy-axloqiy fazilatni yuksaltirish, ijtimoiy muhit, shaxs mas'uliyatining shakllanib borishi, ijtimoiy hayotimiz yangilanib borayotganligi, insonning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan ma'naviyat tushunchalari har bir jamiyat a'zosi uchun muhim hisoblanishi, jamiyat, xalq farovonligiga erishish yo'lida mas'uliyatlilik fazilatining o'rni, o'z xulqi va faoliyatini tartibga sola olmasligi bilan bog'liq holatlarida irodasizlikni ifoda etishi, insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashi, erkinlik va zarurat kategoriyalarining o'zaro nisbati, mas'uliyatning asosiy funksiyalari, oilada urning xotini, xotinning eri oldidagi, ular ikkovining farzandlari, farzandlarning ota-onalari oldidagi mas'uliyati, aloqiy fazilatlardan biri husni xulq kabilar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, qadriyat, fazilat, tarix, millat, xalq, jamiyat, ma'naviy axloqiy fazilat, mas'uliyat, hushyorlik, dunyoqarash, o'zlikni anglash, millat, inson, tarbiya, axloq, ota-ona, oila, taraqqiyot, xulq, vijdon.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N32>

Bugungi kunda bizning jamiyatimizda erishilgan yutuqlarimizga mahliyo bo'lmasdan, xotirjamlikka berilmasdan, erishayotgan muvaffaqiyatlarga tanqidiy nazar bilan qarash lozim bo'ladi, shunda oldimizda turgan qilishimiz kerak bo'lgan jamiyatimizning farovon hayotini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan maqsad va bir qator dolzarb vazifalarimiz aniq bo'ladi.

Tarixning barcha davrlarida millatning yetuk vakillari tomonidan ma'naviy sohalarni yanada takomillashtirish yo'lida amaliy harakatlar amalga oshirilgan. Ular ajdodlardan-avlodlarga o'tib, avaylab-asrab kelinmoqda. Buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida xalqimizni ezgu g'oyalari bilan millatni turli tahdidlardan himoya qilib, bugungi kunda jamiyatimiz o'ziga xos ma'naviyatiga ega bo'ldi, tarixiy taraqqiyotning o'tmishga aylangan bosqichida muayyan millatning ajdodlari aql-zakovati, qobiliyati va mehnati bilan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmui milliy meros hisoblanadi. Millatga xos bo'lgan rasm-rusumlar ham muhim o'rin egallab, ular millat tarbiyasining ma'lum tizimida aniq urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan muayyan, ramziy, mas'uliyatli harakat tushuniladi.

Jamiyat o'zining madaniyati, ijtimoiy muhiti, insoniy fazilatlarida namoyon bo'ladi. Forobiy yozganidek, faqat axloqiy qadriyatlar, adolat, halollik, barqarorlik, xayr-ehson, ezgulik jamiyat ruhini yuksaltiradi. Ijtimoiy muhitdagi taraqqiyot ma'naviy rivojlanishdan boshlanadi. Ma'naviy kamolotning asosi – tarix, Vatan, kelajak avlod oldidagi mas'uliyatimizni his qilishdir.

Ayrim yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganligi va ulardagi o'ziga xos xususiyatlarda (o'zgaruvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va boshqalar) jamiyatda qabul qilingan normalar va qoidalariga muvofiq kelmaydigan xulq-atvoriga ega bo'lgan shaxslar jamiyatda vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi esa ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi.

Shaxsning o'zini o'zi idora qila bilmasligi, o'z xulqi va faoliyatini tartibga sola olmasligi va o'zini o'zi boshqarish, zarur paytda o'zini tutishga, jasorat, mardlik, matonat ko'rsatishga qurbi yetmasligi bilan bog'liq holatlarini irodasizlikni ifoda etadi. Irodasizlik xalqimiz bunday odamlarni "Og'irning ustidan, yengilning ostidan yuradi", deb ta'riflaydi. Darhaqiqat irodasizlik odam hech qachon mas'uliyatni zimmasiga olmaydi, tashabbus ko'rsatmaydi, «Bersang yeyman, ursang o'laman», degan aqida asosida yashaydi, nafaqat irodasizlik, balki vijdotsiz odamning adolatparvar, sadoqatli, or-nomusli inson bo'lishi amrimahol, eng avvalo, o'zgalarga nisbatan burch va mas'uliyatni teran his etishni taqozo etadi.

Insonning jamiyat, millat, davlatning tinchligi, barqarorligi, farovon hayoti va mustaqilligini mustahkamlash hamda saqlab qolishga qaratilgan yuksak ma'naviy tuyg'usini ifoda etuvchi hushyorlik talabidir, jamiyatda halol insonlar qancha ko'p bo'lsa, u shuncha taraqqiy etadi. Binobarin, halol odam vazifasiga mas'uliyat bilan yondashadi, qing'ir yo'llar orqali boylik orttirishni o'ylamaydi, ishi, xalqi, vataniga sodiq bo'ladi. Biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotmasligimiz kerak, bu muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'ymasligimiz lozim, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizni ardoqlashimiz, tarixiy xotiramizni asrab-avaylashimiz, o'shandagina o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan ildam harakatlanamiz.

Vatanimizning tinch va osoyishtaligi, jamiyatimizning barqaror taraqqiyoti bilan belgilanar ekan, har bir vatandoshimiz, avvalo har birimizning ogoh va hushyor bo'lishimiz lozimligi davr talabi zimmamizdagi ulkan mas'uliyat ekanini unutmasligimiz lozim.

Yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas'uliyat, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish[1] kabi

yo'nalishdagi ishlarimiz samarasini oshirish uchun yana ko'plab tadbirlarni amalga oshirish zarur. O'zbek xalqining ruhiyati va an'alariga asoslanib, o'z islohotlarimizning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan va bu yo'lda samarali qadamlar qo'yildi. Ana shu ezgu niyatlarni amalga oshirish yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir insonning zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Shu bilan birga, har birimizning O'zbekistonimizning kelajagi yo'lidagi fidoyiligimizni, vatanparvarligimizni, imon va insofimizni sinovdan o'tkazamiz.

Fuqarolik burchi, shaxsiy mas'uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini, faol hayotiy pozitsiya va qat'iy e'tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda talabalarimizda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ona-yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularni o'z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash tarixiy yondashuv va milliy qadriyatlarimiz asosida o'tkazilayotgan turli tadbirlar, davra suhbatlari, video roliklar, ma'ruza va suhbatlarni o'rni juda beqiyosdir[2].

Odamlarning dunyoqarashi o'zgarishi, g'urur, oriyat, sha'n va nomus tuyg'ulari kuchayishi, hayotga va mehnatga munosabati, Vatanga, yurtimizga mehri, egalik va mas'uliyat hissi kuchayishini ko'rishimiz mumkin. O'zligini anglagan va o'zgalarni ham tan oladigan, o'z madaniyati, san'ati va ko'p asrlik noyob merosini yanada boyitish haqida doimo qayg'uradigan xalq bilan har qancha faxrlansa arziydi. Biz istiqlool sharofati tufayli erishgan eng katta yutug'imiz insonlarda paydo bo'layotgan va tobora mustahkamlanib borayotgan kelajakka ishonch va mas'uliyat tuyg'usi ortib bormoqda.

Dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi[3].

Insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini o'zlikni anglash tushunchasi ifodalaydi. Jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish qonuniyatlarini bilish, Vatan, millat oldidagi mas'uliyat tuyg'usi hamdir. Mudom tarixiy rivojlanib boradigan shakl va ko'rinishlarda, turli darajalarda namoyon bo'ladi. Uning birinchi shaklida inson his etish orqali o'zini tabiatdan, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan ajrata biladi.

O'zlikni anglash, vijdon, xulq kabilar bilan bog'liq holda mas'uliyat yuzaga keladi, ijtimoiy-individual xususiyat va subyektiv jihatlariga ega, avvalo, u mas'uliyat, majburiyat kabi umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi. Har bir kishi uchun umumiy bo'lgan oila, ota-ona, Vatan, xalq oldidagi umumiy mas'uliyat bilan bir qatorda, burchning individual darajasi ham mavjud.

Insondagi komillik, eng avvalo uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidadir. Shu ma'noda, buyuk yunon faylasufi Suqrotning "O'z-o'zingni angla", degan da'vati ham insonning nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir.

Bugungi sharoitda millat ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida jonini ham berishga tayyor fidoyi insonlar ko'p, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinligini hamma tushunadi, endi zimmasiga mas'uliyat olishdan cho'chimaydigan kishilar ishlaydigan zamondamiz, mas'uliyatdan qo'rqmaslik kerak.

Ma'naviy va ma'muriy-huquqiy sohalarida mas'uliyatlilik tushunchasi keng qo'llaniladi, ma'naviyat nuqtai nazaridan yondashilganida burch, ijtimoiy ma'noda jamiyat va boshqa

oldidagi ma'naviy qarzdorlik, ma'muriy jihatdan, ijtimoiy tartibga solishning turli me'yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo'lishi nazarda tutilishi va huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma'noli kategoriya hisoblanadi[4].

Mas'uliyat muammosiga azaldan erkinlik va zarurat kategoriyalarining o'zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining ma'naviy-axloqiy jihati nuqtai nazaridan yondashib kelinadi. Shu ma'noda mas'uliyatlilik tushunchasi falsafiy, axloqiy, psixologik, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga xos ko'plab masalalarning murakkab majmuini qamrab oladi. Bu hol inson va ijtimoiy borliq mohiyatining murakkabligi va rang-barangligi bilan belgilanadi. Har qanday odam o'zi uchun muhim biron bir maqsadga erishish yo'lida harakat qilish usulini tanlashda o'z tabiatiga ko'ra erkin ekaniga qaramay, uning shaxsiy hayoti butun jamiyat hayoti, boshqalar oldidagi mas'uliyati bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat esa o'z-o'zini asrash va rivojlanish uchun muayyan ichki tartibni shakllantirib, o'z a'zolarining nomaqbul qilmishlarini amalda cheklashga majbur bo'ladi, shunday qilib, odamlarning xulq-atvor me'yorlari bilan mas'uliyati uzviy aloqador. Bu holat jamiyatning barcha a'zolari bir-biri va jamiyat oldida ma'lum majburiyatlarni ongli yoki ongsiz ravishda qabul qilishi, shuningdek, zarur hollarda ularni ro'yobga chiqarishga tayyorligida namoyon bo'ladi.

Mas'uliyatning asosiy funksiyalarini yoritishda uning rivojlanish jarayoni insonning ham ichki dunyosi, ham tashqi muhit bilan bog'liq ekaniga e'tiborni qaratish lozim. Insonning ichki rivojlanishi jamiyatga va uning mo'ljallariga munosabatini belgilaydi. Tashqi muhit esa mavjud odatlar, an'analar, axloq qoidalari va davlat majburlovi yordamida uning xulq-atvorini tartibga soladi. Bunday talqinda ijtimoiy mas'uliyat sudlanish, ma'muriy yoki jinoiy jazoni qo'llash tahdidi ostida o'z xulq-atvorini mavjud ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy maqsadlar va qonunlarga muvofiqlashtirish zarurligini ixtiyoriy (ba'zan majburiy) qabul qilish tarzida amal qiladi. Bu, avvalo, inson jamiyat va uning qonunlaridan tashqarida mavjud bo'la olmasligi bilan belgilanadi. Shaxs umume'tirof etilgan normalarni qabul qilmagan yoki buzgan taqdirda mas'uliyat mazkur jamiyatning yaxlitligini saqlash maqsadini ko'zlovchi tartibga solish omili sifatida xizmat qiladi.

Majburiyat har bir inson tomonidan jamiyat, o'z oilasi, yaqinlariga nisbatan ma'naviy burchini teran his etish, axloq talablariga qat'iy rioya etgan holda faoliyat yuritish, yurt, Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur anglagan holda harakat qilishni anglatadi. Oilada ernaing xotini, xotinning eri oldidagi, ular ikkovining farzandlari, farzandlarning ota-onalari oldidagi mas'uliyati va burchining to'g'ri bajarilmasligi ana shunday salbiy holatlarga olib keladi. Oilaviy, ma'naviy munosabatlarda er-xotin, ota-ona va farzand o'rtasidagi mehr-muhabbat, mehr-shafqat, mehr-oqibat kabi insoniy tuyg'ularning o'rni va ahamiyati beqiyos.

Har bir ota-ona o'z farzandini, ta'lim-tarbiya muassasalari (bog'cha, maktab, litsey, internat yoki universitet) esa har bir o'quvchini, talabani mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, huquq va burchini yaxshi anglaydigan, yoshligidan zamonaviy kasb-hunarlarini egallagan, mehnatkash va faol, bunyodkor inson etib tarbiyalashi lozim. Agar ota-ona oiladagi baxt bilan quvonsa, farzandlari ham uydagi har bir narsaga, hayotga mas'uliyat bilan qarashga odatlanadi. Shaxs zimmasiga qo'yilgan talablarga nisbatan mas'uliyati va majburiyatini bajarish ma'naviy zaruratga aylanishini ifodalaydi.

Insonning boshqalar haq-huquqini hurmat qilishi, ahliga vafodor bo'lishi, sadoqatli, sharm-hayoli va or-nomusli bo'lishi, uyatli ishlarga duch kelganda xijolat tortishi, jamiyatda

qabul qilingan turmush tarzi madaniyatiga rioya qilishi, har bir ish uchun mas'uliyatni his qilishi – bular uning pok va beg'ubor inson ekanini ko'rsatadi.

Axloqiy fazilatlardan biri husni xulqqa e'tiborimizni qaratamiz, ibratli fe'l-atvor, shaxsning xarakteri va xatti-harakati orqali o'zgalarga namuna bo'la oladigan fazilatlari bilan ijobiy va yoqimli taassurot uyg'otuvchi axloqiy kamolot belgisini xulq go'zalligi ifodalaydi, xulq go'zalligini namoyon etuvchi sifatlar va fazilatlar nisbiy xarakterga ega, ular davrlar o'tishi bilan o'zgaradi, sayqallashadi va bir qator axloqiy me'yorlar hamda mezoniy tushunchalar orqali takomillashib boradi. "Iymon", "Muhabbat", "Ezgulik" kabi falsafiy axloqiy tushunchalar, "niyat", "xavotir", "mas'uliyat" kabi mezoniy tushunchalari insonda husni xulq mazmunini boyitadi.

Inson mas'uliyati, axloqiga bepisandlik ba'zi yoshlarning kiyinishi, fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. Bizning nazarimizda inson qadriyati uning axloqiylikka yo'nalgani bilan belgilanishi kerak.

Darhaqiqat, bugun axborot chunonam ko'p va tez kirib kelyaptiki ularni "hazm" qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniqsa internet olami farzandlarimiz e'tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o'yinlari haqida ham shunday misollarni keltirish mumkin[5].

Umuman olganda, ma'naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Insonning ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy hayot, ong va munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan, jamiyat taraqqiyoti va turmushi ta'sirida shakllangan ma'naviy xususiyat va xislatlarining umuminsoniy hamda milliy fe'l-atvor ko'rinishlarini ifodalaydi. Ma'naviy fazilatlardan yana biri – vijdon kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvorida mujassamlashgan oila, mahalla, jamoa, jamiyat, millat va Vatan oldida ma'naviy mas'uliyatni his etish tuyg'usidir. Ma'naviy fazilat insonning shaxs sifatidagi faoliyatida ham, uning Vatan va xalq oldidagi mas'uliyatini his etishida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat ma'naviy taraqqiyotining o'ziga xos mezoni sifatida xizmat qiladi, shaxs, millat va jamiyatning ma'naviy munosabatlar, jarayonlar, aloqa va muloqotlari majmui, ijtimoiy hayotning muhim ko'rinishini ifodalaydi, ma'naviy hayotning shakllanib borishi va yashovchanligi, avvalambor, shu jamiyat fuqarolari zimmasiga yuklatadigan asosiy mas'uliyat hisoblanadi.

Milliy tarbiya millat vakillariga, ayniqsa uning yoshlariga milliy meros, urf- odat, an'ana va axloqdagi eng ilg'or xususiyatlarni, qadriyatlarni singdirish orqali milliy ong, dunyoqarash, ruhiyatni shakllantirish, o'zligini anglatish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mustahkamlash, milliy istiqboli uchun mas'ullikni ongi va qalbiga singdirish, milliy zaminlardagi boy meros asosida ma'naviy boyitish borasida olib boriladigan amaliy faoliyat yo'nalishidir[6].

Muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanishi jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, u yashayotgan hudud, madaniy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat tarixi, o'tmishi, turmushi va yashash tarzi, hayotining tartib- qoidalari hamda bu bilan bog'liq milliy xususiyatlar majmui milliy ma'naviyatdir. Vatan tuyg'usida kishilarning o'zi mansub bo'lgan tarixiy birlik shakllanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan hududga nisbatan ma'naviy qarzdorligi, burch va mas'uliyati bilan bog'liq ijtimoiy tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Turli millat yoki elatning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ma'naviy-diniy e'tiqodi, madaniy rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, e'tiqod va ishonch tuyg'ulari milliy ong hisoblanadi.

Muayyan millatning etnosotsial birlik sifatida mavjudligi va rivojlanishi, erkin va ozod taraqqiyotini asoslash, ta'minlashga qaratilgan g'oyaviy- nazariy qarashlar tizimi hisoblanadi. Har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burchi va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon mavjud.

Insonning ichki rivojlanishi jamiyatga va uning mo'ljallariga munosabatini belgilaydi. Tashqi muhit esa mavjud odatlar, an'analar, axloq qoidalari va davlat majburlovi yordamida uning xulq-atvorini tartibga soladi. Bunday talqinda ijtimoiy mas'uliyat sudlanish, ma'muriy yoki jinoiy jazoni qo'llash tahdidi ostida o'z xulq-atvorini mavjud ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy maqsadlar va qonunlarga muvofiqlashtirish zarurligini ixtiyoriy (ba'zan majburiy) qabul qilish tarzida amal qiladi. Bu, avvalo, inson jamiyat va uning qonunlaridan tashqarida mavjud bo'la olmasligi bilan belgilanadi. Shaxs umume'tirof etilgan normalarni qabul qilmagan yoki buzgan taqdirda mas'uliyat mazkur jamiyatning yaxlitligini saqlash maqsadini ko'zlovchi tartibga solish omili sifatida xizmat qiladi. Mas'uliyatning mazkur tartibga solish funksiyasi nafaqat shaxsga, balki har qanday rasmiy va norasmiy ijtimoiy tuzilmalarga nisbatan ham amal qiladi.

“Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari» g'oyasini ro'yobga chiqarish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va keng ko'lamli ishlar mantig'ini tushunish, shu yo'nalishdagi yangilanishlar va o'zgarishlar jarayonida har birimizning o'z o'rnimiz va mas'uliyatimizni anglashimizga xizmat qiladigan zarur qo'llanma, o'ziga xos darslik hamdir.

Jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish, chinakam siyosiy va iqtisodiy istiqbolga erishish yo'lidir. Bu yo'ldan faqat haqiqiy vatanparvarlarga, o'z mamlakati va xalqining taqdiri uchun butun qalbi va yuragini bag'ishlagan, o'z manfaatlarini davlatimizning qudratli va farovon bo'lishiga erishish maqsadlariga bo'ysundira oladigan, bunga o'zining kuch-g'ayrati, tashabbusi, bilimi va mehnatini bag'ishlay oladigan kishilarga yura oladi. Mamlakatimizning har bir fuqarosi Respublika taqdiridagi tarixiy o'zgarishlarda ishtirok etayotganligini, kelajak uchun shaxsiy mas'uliyatini haqiqiy his etgan taqdirdagina xalqimiz chinakam erkin va baxtiyor yashaydigan kuchli davlat quradi. Bizga Yangi O'zbekistonimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash kabi mas'uliyatli davrda yashash nasib etdi. Istiqboldek buyuk ne'matning qadriga yetadigan, uni mustahkamlaydigan, o'z qadr-qimmatini biladigan sog'lom avlodni tarbiyalash hammamizning zimmamizga mas'uliyat yuklaydi. Har birimiz shu muqaddas zaminga farzandlik burchimizni to'g'ri va to'liq anglab, o'z ish joyimizda va o'z mas'uliyatimizni bo'yinga olib, fidoyilik bilan mehnat qilsak oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yangi O'zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh .M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 291 b.
2. “Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash: tarixi, istiqbollari, kelajagi” Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari to'plami. – T.: O'zMU Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, 2024. – 75 b.
3. Педагогика: nopeдагогик олий таълим муассасалари учун мўлжалланган дарслик. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, Д.И.Рўзиева, М.Ҳ.Усмонбоева. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2016. – 85 б.
4. O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A'zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas'ul muharrir) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 75 b.

5. “lokal urushlarda shaxsiy tarkibni axloqiy- ruhiy holatlarini stabillashtirish muammolari” Respublika ilmiy-uslubiy anjumani ma’ruzalari to’plami. – T.: O’R MV AKT va AHI, 2024. – 91 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlari 1 (29)-son mart O‘R QK Akademiyasi nashri, 2019. – 68 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).